

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/2025.27.12.I.23.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UO'K: 336.1:364.35(575.1)

RAJABOV NURIDDIN RAVSHANOVICH

**PENSIYA TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHNI
TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI**

08.00.07 – «Moliya, pul muomalasi va kredit»

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. D.R.Rustamov

Toshkent – 2026 yil

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I BOB.	PENSIYA TIZIMINI MOLİYALASHTIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY VA TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARI.....	11
1.1.	Pensiya tizimini moliyalashtirishning nazariy-huquqiy va institutsional asoslari	11
1.2.	O‘zbekiston Respublikasida pensiya tizimini moliyalashtirishning tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy asoslari.....	25
1.3.	Pensiya tizimini moliyalashtirishning ilg‘or xorij tajribalari.....	44
	Birinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	57
II-BOB.	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PENSIYA TIZIMINI MOLİYALASHTIRISHNING AMALIY TAHLILI.....	60
2.1.	O‘zbekiston pensiya ta‘minoti tizimini moliyalashtirish ko‘rsatkichlarining amaliy tahlili	60
2.2.	O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimini mablag‘ bilan ta‘minlashning amaldagi holati tahlili.....	72
2.3.	O‘zbekistonda davlat pensiyalarini moliyalashtirish va to‘lash tartibi va o‘ziga xos xususiyatlari tahlili.....	80
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	89
III-BOB.	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PENSIYA TIZIMINI MOLİYALASHTIRISHNITAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	91
3.1.	O‘zbekistonda pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta‘minlash yo‘llari.....	91
3.2.	Pensiya tizimini moliyalashtirish bilan bog‘liq muammolar va ularni hal etish.....	105
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	135
	XULOSA.....	137
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	140

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda aholining ijtimoiy ta'minotga muhtoj bo'lgan aholini moddiy ta'minotini yaxshilash, ularning munosib hayot kechirishlariga ko'maklashish uzoq davrdan buyon dolzarb ijtimoiy masalalardan bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy ta'minotga muhtojlarning salmoqli qismini keksalar, nogironligi bo'lganlar va boquvchisini yo'qotganlar tashkil etadi hamda ularning aholi sonidagi salmog'i yildan-yilga ortib bormoqda. Jahon banki (World Bank) ma'lumotlariga ko'ra jahonda 2002-2022 yillar oralig'ida jami aholi sonida 65 yoshdan oshganlar ulushi 6,65 foizdan 10,01 foizga yetgan¹, tadqiqotlar ko'rsatishicha mazkur tendensiya kelgusida ham davom etadi. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO – International Labour Organization) tadqiqotlari ko'rsatishicha, «jahon miqyosida pensiya yoshiga yetgan shaxslarning 68 foizigina pensiya ta'minotidan bahramand, ammo aksariyat mamlakatlarda bunday to'lovlarning hajmi keksalarning kambag'allikdan qutilishiga imkon bermaydi»².

Jahondagi murakkab geosiyosiy vaziyat va iqtisodiy beqarorlik sharoitida mamlakat pensiya ta'minoti tizimidagi muammolarni chuqur o'rganish va ularni bartaraf etishning ilmiy-amaliy asoslarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat va xususiy pensiya jamg'armalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, aholining kelgusida munosib pensiya olishini kafolatlash hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarni qo'shimcha moliyaviy ko'mak bilan qo'llab-quvvatlash bugungi kunda ustuvor vazifalar sifatida belgilab qo'yilgan.

Shu bilan birga, pensiya ta'minotining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, masofaviy pensiya xizmatlarini rivojlantirish, uch bosqichli pensiya tizimini joriy etish va izchil rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni ilmiy tadqiq qilish zarurati ortib bormoqda. Mazkur yo'nalishlardagi ilmiy izlanishlar pensiya tizimi samaradorligini oshirish hamda aholi farovonligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ <https://data.worldbank.org/indicator/SP.POP.65UP.TO>

² Оценка системы социальной защиты в Узбекистане. На базе основного диагностического инструмента (CODI)/ Совместный отчет МОТ, ЮНИСЕФ и Всемирного банка, 2020. – С. 4.

O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimini takomillashtirish, budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, mavjud pensiya tizimini isloh etish zaruratini mavjud ekanligi ko‘rsatmoqda. Xususan, aholining o‘rtacha umr ko‘rish davrining uzayib borishi va shunga monand ravishda pensionerlar sonini ko‘payib borayotganligi, to‘liqsiz ish staji bilan pensiyaga chiqayotganlar sonini o‘sish tendensiyasiga ega ekanligi, fuqarolarning yoshga doir pensiya miqdori bilan mehnat staji o‘rtasidagi bog‘liqlikning zaifligi, nodavlat pensiya ta‘minotining shakllanmaganligi kabi omillar, fuqarolarning davlat ijtimoiy sug‘urtasidagi ishtirokiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi va davlat pensiya ta‘minoti tizimini isloh qilish zarurligini taqozo etadi. Shunga ko‘ra, «pensiya va nafaqalarni tayinlash va to‘lash tartibini qayta ko‘rib chiqish, pensiya tizimini tubdan isloh qilish» kabilar ijtimoiy sohani rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan.³

Mazkur dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 9-fevraldagi O‘RQ-752-son “Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini yanada kuchaytirish munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-martdagi PF-6195-son “Keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, “Saxovat” va “Muruvvat” internat uylari tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi hamda 2022-yil 29-apreldagi PF-128-son “Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot natijalari ushbu sohani tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ham muayyan amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasi (<http://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-olij-mazhlisga-murozhaatnomasi>).

axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion Iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Pensiya ta‘minoti tizimidagi muammolarning ilmiy-amaliy jihatlarini xorijlik iqtisodchi-olimlardan J.Peng, R.Yakobs, M.Goddard, K.Kempbell, S.Batler, G.Tetlow, V.Roik, A.Ijaeva, A.Skurova, S.Orlov, A.Shemetov va boshqalarning ilmiy ishlarida tahlil qilingan⁴.

O‘zbekistonlik iqtisodchi-olimlardan A.Vaxabov, T.Malikov, N.Jumayev, B.Umurzakov, R.Dalimov, Sh.Toshmatov, G.Kasimova, N.Majidov, D.Rustamov, Sh.Radjabov, Z.Beknazarov, B.Xusanov, B.Mamatovlarning ilmiy ishlarida pensiya ta‘minoti tizimini tashkil etishning huquqiy-institutsional asoslari, pensiya tizimining nazariy va amaliy jihatlarini, rivojlanish tendensiyalari, sohadagi muammolar, ustuvor yo‘nalishlar, islohotlar tadqiq qilingan⁵.

So‘nggi yillarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda pensiya ta‘minoti tizimini modernizatsiya qilish, byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi barqarorligini kuchaytirish, nodavlat pensiya ta‘minoti mexanizmlarini rivojlantirish, investitsion jarayonlarning faolligini oshirish hamda fuqarolarning

⁴ Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. – USA.: «Auerbach Publications», 2008. – 240 p.; Rowena Jacobs, Maria Goddard. Social Health Insurance Systems in European Countries The Role of the Insurer in the Health Care System: A Comparative Study of Four European Countries. – Heslington, York England: «The Publications Office Centre for Health Economics», 2000. – 132 p.; Collin Campbell. Social Insurance in Figures 2018. Swedish Social Insurance Agency. – Stockholm, Sweden. 2018. – 70 p.; Stephen Butler. Roadmap to Retirement Security: How to Build and Conserve Retirement Wealth. – USA.: «Universe», 2014. – 112 p.; Gemma Charlotte Tetlow. Essays on the Economics of Retirement and Pensions. A dissertation submitted in partial fulfilment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy of University College London. – England: Department of Economics University College London. 2015. – 224 p.; Роик В.Д. Социальное страхование в меняющемся мире: каким будет выбор России? – СПб.: «Питер», 2014. – 352 с.; Роик В.Д. Социальная политика: заработная плата и страхование рисков её утраты: учебник. – М.: «Юрайт», 2019. – 536 с.; Ижаева А.Р. Концепция развития пенсионной системы Российской Федерации в посткризисный период: автореф. дис. . к.э.н. – М.: «ФГБОУ ВПО», 2013. – С. 31.; Скурова А.В. Развитие системы негосударственного пенсионного страхования в России и за рубежом: автореф. дис.к.э.н. – М.: «ВАНТ», 2011. – 26 с.; Орлов С.Н., Шеметов А.П. Пенсионное обеспечение в Российской Федерации. Монография. – Курган: «КГУ», 2013. – 106 с.

⁵ Vaxabov A.V., Majidov N.M. Jamg‘arib boriladigan pensiya jamg‘armasining O‘zbekistonda investitsiya siyosatini amalga oshirishdagi roli. Monografiya. – T.: «Universitet», 2017. – 128 b.; Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya. Darslik. – T.: «Iqtisod-moliya», 2019. – 800 b.; Kasimova G.A. Ijtimoiy sug‘urta. Darslik. – T.: «Iqtisod-moliya», 2019. – 568 b.; Vaxobov A.V., Burxanov U.A., Jumayev N.X. Chet mamlakatlar moliyasi. Darslik. – T.: «Yangi asr avlodi», 2003. – 344 b.; Умурзаков Б.Х. Совершенствование системы социальной защиты нетрудоспособных слоев населения в условиях формирования рыночной экономики: автореферат дис. канд. экон. наук: 08.00.10. – Ташкент, 1995. – 22 с.; Далимов Р.Т. Мировой опыт реформирования пенсионной системы и его использование в условиях переходной экономики. Автореф. дисс на соис. уч. степ. канд. экон. наук: – Т.: «НУУ», 2002. – 20 с.; Rustamov D. O‘zbekistonda pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta‘minlash masalalari. Monografiya. – T.: «Iqtisod-moliya», 2018. – 200 b.; Хусанов Б.Ш. Проблемы регулирования финансового механизма социального обеспечения населения. Автореф. дисс. на соис. учен. степ. канд. экон. наук: – Т.: «НУУ», 2011. – 25 с.; Mamatov B.S. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolar pensiya ta‘minoti tizimini rivojlantirish yo‘nalishlari: Monografiya. – T.: «Iqtisod-moliya», 2022. –160 b.